MAKTAB O‘QUVCHILARINING GEOMETRIYADAN O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

Akmalov A.A.

Fan va texnoligiyalar universiteti Aniq fanlar kafedrasi professor v.b.

Raxmonov A.U.

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20077661

Annotatsiya: Ushbu maqolada geometriya darslarida maktab o‘quvchilarining geometriyadan o‘quv faoliyatini tashkil etish innovasion metodik xususiyatlari ochib berilgan bo’lib, shu bilan birga o‘qituvchi faoliyatini o‘ziga xos jixatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlari: geometriya, ta’lim, o‘quv faoliyati, o‘quvchi, mazmun.

Аннотация: В данной статье раскрываются инновационные методические особенности организации учебной деятельности школьников по геометрии на уроках геометрии и одновременно описываются специфические стороны работы учителя.

Ключевые слова: геометрия, образование, учебная деятельность, ученик, содержание

An’anaviy tarzdagi o‘qituvchining faolligi va barcha materialni tushuntirishga harakat qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan darslarning o‘rniga o‘quvchining faolligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan noan’anaviy darslarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Endilikda o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ymaydigan, fikrlashga, mustaqil ishlashga yo‘naltiradigan har xil metodlar va o‘qitish vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Geometriya o‘qitishda o’quvchilar tomonidan qiyin o’zlashtirishi asosida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini rivojlantirish, o‘qitish va o‘rgatish jarayonining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. U quyidagilardan iborat:

— geometrik tushunchalarning mazmuni, xossalari va qonuniyatlarini bilish;

— kundalik vazifa qilib qo‘yilayotgan va o‘rganilayotgan har bir dalil, qonun va qoidalarni aniq mushohadadan o‘tkazib, undan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish;

— geometrik tushuncha, teorema va ta’riflar abstraksiyasi mohiyatini tushunib olib, uni ma’lum darajada aniqlashtirib, amaliyotga joriy qilish;

— geometrik bilimlarning tub mohiyatini tushunib, to‘g‘ri mulohaza yuritish va uni amaliyotga tatbiq qilish;

— amaliyotga tatbiq etish jarayonida tegishli nazariy xulosalar chiqarib, mazkur bilimni boyitish va uning ta’sir etish doirasi hamda darajasini kengaytirish.[3]

Yuqorida keltirilgan sifatlarni shakllantirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

a) geometriyadan har bir yangi darsda asosiy dalillarni, tushunchalarni, qonun va qoidalarning mazmunini o‘quvchilar ongiga etkazish;

b) o‘quvchilarning o‘quv faoliyatinirivojlantiruvchi nazorat qilish usullari hamda ilmiy tafakkurni ro‘yobga chiqaruvchi omillardan foydalanish;

c) bilish faoliyatini tezlashtiruvchi va sifatini oshirishni ta’minlovchi vositalarni takomillashtirish;

d) geometriya o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni o‘stirish;

i) geometriyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ongli mushohada yurgizishga o‘rgatuvchi noan’anaviy metodlardan unumli foydalanish.

Bunda butun dars o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ta’sir etuvchi elementlarning murakkab tizimi sifatida qaralib, o‘qituvchi darsning asosiy maqsadi, mazmunini bayon qilish uchun kerak bo‘ladigan vositalar va metodlarni o‘zarok bog‘liq holda amalga oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir mavzuning berilishiga qarab to‘g‘ri tanlanishini va uni me’yoriga etkazuvchi metodlardan unumli foydalanishni talab qiladi. Demak, aytilgan fikrlarning o‘zaro bog‘liqligi, har bir o‘qituvchining darsga tayyorgarligi qay darajada bo‘lishi lozimligini aniqlaydi. [1]

Geometriya fanini o‘qitishda bilimlarni qayta tartibga keltirish va faollashtirish o‘ziga xos ahamiyatga ega. O‘quvchilar bilimini tahlil xamda sintez qilishning yo‘naltiruvchi imkoniyatlari mavjud. Dars jarayonida o‘quvchilarning hayotiy tajribasi asosida nazariy va amaliy bilimlarni o‘zaro bog‘lashda, ya’ni maqsadga yo‘naltirishda faol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa, yuqorida ko‘rsatilgan bilimlar blokida o‘z isbotini topadi. Har qanday ob’ektni o‘rganishda, uning holati, munosabati, bog‘liqlik tomonlari va o‘zaro ta’sirini o‘rganib chiqish masalasi turadi. Bu masalalarni yechish orqali shu obyekt hususiyatlari o‘rganiladi. Obyektning dastlabki holatini ma’lum sharoitda asoslash mumkin. Bu masalada avvalo, tahlil qilish metodining maqsadi obyektning kichik bir bo‘lagini o‘rganib, butun obyektga baho berishga asoslangan.

Yuqorida keltirilgan o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishda geometriyaning planimetriya va stereometriya bo‘limlarini o‘qitishni birgalikda olib borish yoki qiyosiy tahlil qilish orqali mavzularni bayon qilish muhim ahamiyatga ega.

Geometriya fanini o‘qitishni tekislik va fazoda birgalikda olib borish fuzionizm prinsipi deb atalib, geometriya fanini o‘qitishga bunday yondashish boy tarixiy ma’lumotlarga ega. Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) o‘zining «Bilimlar kitobi» nomli asarida planimetriya tushunchalarini stereometriya tushunchalari bilan birgalikda analogiya orqali birlashtirgani haqidagi ma’lumotlar ham bizgacha etib kelgan. [3]

Shuni ta’kidlash kerak-ki, geometriya darslari uni tashkil etish usul va uslublariga bevosita bog‘liq. Geometriya kursining mazmuni va sifati o‘quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma va malakalariga, qolaversa, didaktik vazifalariga ko‘ra quyidagi metodlar asosida tashkil qilinadi:

1. Mavzuga doir masalalarni mustaqil yecha olish.
2. Geometriyadan darslarni o’tish jarayonida ko’rgazmali metodlardan foydalanish.
3. Geometriyadan darslarni o’tish jarayonida mantiqiy, ya’ni induktiv va deduktiv metodlardan foydalanish.
4. Geometriyadan darslarni o’tish jarayonida nazorat va o’z-o’zini nazorat qilish metodlardan foydalanish.

O’qituvchining yuqorida keltirilgan metodlardan qaysi hollarda qanday imkoniyatlarga ega bo’lish kerakligi hamda dars xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Xulosa qilib umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining geometriyadan o‘quv faoliyatini yanada takomillashtirish, o‘quvchilarning imkoniyat va talab ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta‘lim berish, ularning bilim darajasini davlat va jamiyat talablari asosida rivojlantirishga erishish uchun geomeriyani o‘qitish jarayonida kursni o‘qitish metodikasini takomillashtirishni muayyan tamoyillar asosida tashkil etish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akmalov A. Matematika kursida o‘quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda iqtisodiy masalalardan foydalanish. “Oliy ta'limni raqamlashtirish muhitida innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 14-15 mart ,89-91бетлар

2. Sh. Nematova “Matematika fanini o‘qitishning nazariy masalalari va metodikasi”, “Tafakkur nashriyot” T.: 2011

3. AkmalovA The use of practical and meaningful problems in the process of teaching mathematics EPRA International Journal of RESEARCH&DEVELOPMENT (IJRD), Volume-5, Issue-10, October 2020